

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LIRIK SHE’RLARNI O‘TISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH

Parpiyev Odil Olimovich

Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Yoqubova Dilraxon Dilmurodjon qizi

Qo‘qon universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda lirik she’rlarning ahamiyati va interaktiv usullarning qo‘llanilishi, she’r tahlili, talqini haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, lirik she’rlar, interaktiv usul, metod, she’rlarni o‘qishga tayyorgarlik.

Hayajonli she’riy nutq bilan ifoda etilgan, ma’lum bir ichki ohangga va ohang jihatidan tartibga solingan ritmik nutqni biz she’r deb ataymiz. U badiiy adabiyotning qadimiy turi hisoblanadi. Rivoyat qilinishicha, birinchi she’rni Odam alayhissalom bevaqt o‘ldirilgan o‘g‘li Hobilning dardida kuyib yaratgan ekan. Shuning uchun ham unda deyarli hamisha muallifning ichki kechinmalari, kayfiyati ustuvorlik qiladi. She’rda fikrning kutilmagan va sezimlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarzda ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. She’rni o‘qiganda katta-yu kichik tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik ta’siridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi darslarida lirik she’rlarni o‘qitish va tahlil qilish jarayoni o‘qituvchidan yuksak saviya, katta mahorat talab qiladi. Bunda o‘qituvchi kelajak avlod yetuk, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi va adabiy ta’limning maqsadi amalga oshishi uchun o‘z ustida ishlashi, izlanishi, har bir darsga yangicha yondashishi shart va majburdir. Afsuski, ko‘p hollarda she’rga oddiy bir matn sifatida yondashiladi. Bunday hollarda esa she’r hissiyot bilan bog‘liqligi unutiladi, she’rdagi asl satrlar, asl ma’nolar yashirin so‘zlarda mujassam ekanligi anglab yetilmaydi. Shu tufayli o‘quvchilar she’rning obrazlilikini tushunib yetmaydilar, mag‘zini chaqa olmaydilar. Darhaqiqat, har qanday asar ichidagi yashirin ma’noni anglab yetish juda ko‘p mehnat talab qiladi. Busiz hatto adabiy ta’limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

O‘quvchilarga lirik she’rlarni o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘qituvchi avvalombor, o‘quvchilarga she’r haqida ma’lumot berib, she’riy ohangni his qildirishi, uning qay tarzda o‘qilishi, she’rning asl ma’nosi va ular uchun tushunarsiz atamalar haqida o‘quvchilarda tushuncha hosil qiladi. O‘quvchilar she’riy ohangni his qilmasa, she’rdagi so‘zlarning ma’nosini to‘la tushunmasa, she’r ular uchun zerikarli mashg‘ulotga aylanib qoladi va she’r nima haqida ekanligini yaxshi anglamasa, hatto ular uchun she’r yodlash oson bo‘lmaydi. Bu albatta, salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, o‘quvchi savodsiz qoladi. Ikkinchidan, o‘qituvchi va o‘quvchilar, hatto ota-onalar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga chiqadi.

O‘qituvchi o‘z maqsadiga erishishi uchun albatta, she’rni ta’sirli o‘qishi, ichki kechinmalari orqali uni bolaga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo‘lishi darkor.

4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida berilgan Zahro Hasanovaning “Davlatimiz ramzlari” she’rini o‘rganishda albatta, ramz to‘g‘risida gap borar ekan, ularni izohlash talab qilinadi. Keling, biz ish reja misolida ko‘raylik.

Mavzu: “Davlatimiz ramzlari” she’ri (Z. Hasanova)

Darsning maqsadi:

1. Ta’limiy: o‘quvchilarni she’r bilan tanishtirish, she’rni ifodali o‘qish, ularning davlatimiz qomusi va har bir ramzning xususiyatlari haqida tushunchalarini kengaytirish.

2. Tarbiyaviy: guruhlar bilan ishlashda bir-biriga hurmat va o‘zaro ahillikni ta’minlash, davlat ramzlariga hurmat, ehtirom ko‘rsatish.

3. Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, ijodiy va kreativ fikrlashga undash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar, Z. Hasanova rasmi, shoironing hayoti, ijodi haqidagi ko‘rgazma, qisqa metrajli video rolik.

Metodlar: “Oltin mikrofon”, “Kimga solay”, “Oilaviy munozara”, “Xayirlashish”, “Xat tashuvchi”, “Ramzlar” metodi.

Darsning borishi.

Topishmoq.

Binolarning qoshida hilpirab turar mag‘ur,
El bolasin qalbida uyg‘otar faxr, g‘urur.
Bir-biriga hamohang, havorang, oq va yashil,
Oy qoshida o‘n ikki yulduz saf tortgan ahil.
Ulkan ishlar yo‘lida, yoshlar qo‘lida mayoq,
Qani ayting, bu nima? Bu yurtning ramzi(Bayroq).
O‘quvchilar topishmoqning javobi nima ekan?
Barakalla, o‘quvchilar. To‘g‘ri topdingiz.

—O‘quvchilar, quyidagi siz bilan tanishib o‘tadigan “Davlatimiz ramzlari” she‘ri Zahro Hasanovaning qalamiga oid. (Zahro Hasanova hayoti va ijodi haqida qisqa video rolik qo‘yiladi yoki o‘qituvchi o‘zi gapirib o‘tadi) Zahro Hasanova juda ham iste’dodli shoirlarimizdan biri hisoblanadi. U Toshkent shahrining Labzak dahasida 1962-yilda tug‘ilgan. U oilasida besh qiz va bir o‘g‘il bo‘lgan. U juda ham serqirra ijodkor. Sizlarga “Zukko alifbo”, “Kutilmagan sovg‘a”, “Topishmoq va tez aytishlar”, “Salom, maktab”, “Ko‘zmunchog‘im” singari kitoblarni yozgan. Sizlarga uning asarlarini o‘qishingizni tavsiya qilaman. Bugun esa sizlar bilan shoiramizning “Davlatimiz ramzlari” she‘ri bilan tanishamiz.

Ushbu she‘rni o‘rganish darsi dastlab o‘quvchilarning davlat ramzlari haqida tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Ramzlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning nimalarni anglatishi va qachon e‘lon qilinganligi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi va ular bilmagan faktlar, ma‘lumotlar o‘qituvchi tomonidan to‘ldiriladi. Bunda qiziqarli metodlardan foydalanilsa yana ham qiziqarli bo‘ladi. Masalan, “Oltin mikrafon”.

Oltin mikrofoni metodi. Mikrofon yoki shunga o‘xshash biror narsa (masalan, oddiy ruchka) kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga qo‘lingizdagi narsa oddiy narsa emas, u insonni tilga keltiruvchi sehrli oltin mikrofoni ekanligini tushuntirasiz. O‘quvchilar mikrofonni olib davlat ramzlari haqidagi ma‘lumotlarni aytadilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi she‘rni ifodali o‘qiydi.

O‘quvchilar uchun she‘rdagi notanish atamalar aniqlanadi va she‘rning mazmuni aniqlashtiriladi. She‘rning mazmunini yaxshi anglash uchun har bir so‘z tahlil qilinadi. Bunda atamalar bilan ishlash juda ham qo‘l keladi.

Atamalar ustida ishlash. O‘quvchilarga qog‘ozcha tarqatiladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘ziga notanish bo‘lgan so‘zni yozib, doskaga yopishtirib o‘tiradilar. O‘qituvchi har bir atamaga izoh berib tushuntirib o‘tadi. Bu usulning afzalligi har bir o‘quvchi jumladan, tortinchoq bola ham ayta olmagan so‘zini aytish va she’rni yaxshi tushunish imkoniyatini beradi.

Davlatimiz ramzlaridir u –

Bayrog‘i, gerbi, madhiyasi.

Bu muqaddas timsollarimiz

E’zozlar yurt yosh, qariyasi.

Ular erur tinchlik belgisi,

Yurtimiz hurlik belgisi.

Unga munosib-la yuraylik,

Tinchlik uchun hushyor turaylik.

Kimlar orzu qilmadi uni,

Usmon Nosir ko‘rmadi uni.

Unga jodir ajdodlar yodi,

Cho‘pon, Qodiriylar faryodi.

Bu timsollar g‘urur, orimiz,

Bu timsollar iftixorimiz.

Ko‘taraylik ko‘klarga mudom,

Qalbda mehr, hurmat, ehtirom.

(Ko‘kka ko‘tarmoq- ulug‘lamoq, maqtamoq.)

(Faryod- ohi, nolasi)

—O‘quvchilar, bugungi darsimizda qaysi mavzudagi asarni o‘rgandingiz?

—Quyidagi she’riy misralarda sizlarga notanish bo‘lgan so‘zlarni toping.

—She’rda davlatimiz ramzlari haqida nima deyilgan?

—Siz davlatimiz ramzlarini nimaga o‘xshatasiz va ularga qanday ehtirom ko‘rsatasiz?

—She’rning asl mazmunini hamma tushundimi?

Dam olish daqiqasi o‘tkazish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki dam olish daqiqasi bolalarning zerikishini oldini oladi va bu ular uchun juda ham qiziqarli hisoblanadi. Buning uchun “Qomusimiz” o‘yinidan foydalaniladi.

“Ramzlar” metodi- o‘quvchilarning har biriga bayroq, madhiya, gerb nomlari beriladi. O‘qituvchi bayroq -madhiya, gerb-bayroq, gerb-madhiya deganida bayroq bilan madhiya, gerb nomini olgan o‘quvchilar o‘rinlarini almashib o‘tiradilar.

Oilaviy munozara metodi – O‘quvchilar 2ta kichik guruhlariga bo‘lib olinadi va ular aylana tarzda o‘tirib olishadi. Ularni oila nomlari bilan nomlaysiz. Masalan, Bahromovlar hamda Ilhomovlar oilasi. Bir o‘quvchi guruh boshi, ya’ni oila “otasi” bo‘ladi. Ikkala oiladan ham “otalarni” yoningizga chaqirib, ularga qisqaroq she’r yozilgan varaqni berasiz. “Otalar” she’rni 2 daqiqa ichida yaxshilab o‘qib, uni o‘z oila-a’zolariga yetkazib berishlari kerak. Ma’lumotni yetkazish ya’ni ifodali o‘qib berishi uchun esa 3 daqiqa vaqt bering. 3 daqiqadan so‘ng oilalar tahlil qila boshlashsin. She’rni to‘g‘ri tahlil qilgan oila o‘yinda g‘alaba qozonadi.

O‘quvchilarga she’rni ifodali o‘qitishda ham har xil metod va usullardan foydalanilsa yaxshi samara beradi. Masalan:

Saralab o‘qitish – o‘qituvchi o‘quvchilardan o‘zi tanlab she’rni to‘rt misradan o‘qitadi. (Bir o‘quvchi she’rni to‘liq o‘qimaydi). Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Bu metodning afzalligi o‘quvchilar diqqatini jamlashga yordam beradi.

“Kinga solay” metodi— bu metodda o‘qituvchi qo‘liga kichkina narsa yashiradi, misol uchun toshcha yoki qog‘ozcha. O‘qituvchi o‘quvchilar ichida aylanib yurib, qo‘lidagi narsani yashirincha ular qo‘liga soladi va oxirida kimning qo‘liga tushgan bo‘lsa o‘sha o‘quvchi she’rni ifodali tarzda o‘qib beradi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Xat tashuvchi “ metodi.

Xat tashuvchi metodi Bu metodda konvert ichiga mavzu yuzasidan savollar solinadi. O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadilar va har bir guruhdan bitta xat tashuvchi tayinlanadi. Xat tashuvchi o‘z guruhi uchun xat olib borishi kerak bo‘ladi ya’ni o‘z guruhiga savollar konvertini tarqatadi. Jamoa ishtirokchilari birgalikda savollarga javob

yoʻzadilar va xat tashuvchiga yoʻllaydilar va guruhdan 3-4 kishi chiqib savollarga javob beradi. Oʻyin shartini toʻgʻri bajargan jamoa ishtirokchilari gʻolib hisoblanadi.

Namuna uchun savollar:

1. Z.Hasanova qachon va qayerda tugʻilgan?
2. Z.Hasanovaning qanday kitoblarini bilasiz?
3. Sheʼrning boshidagi 4 misrasini ifodali oʻqib bering.
4. Sheʼrdagi Usmon Nosir, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy qatnashgan misrani ifodali oʻqing.
5. Sheʼrning oxirgi 4 misrasini tahlil qilib bering.
6. Topishmoqning javobini toping.

Barcha bilgan Humoqush boshida porlar quyosh.

Manglayida yulduz, oy atrofi paxta, bugʻ doy.

Chambarakka oʻralgan, Oʻzbekiston bayrogʻi

Ikki yonda aks etgan Amu va Sir irmogʻi.

Vodiyarning qoshida togʻlar tik turar qator,

Yurtning qaysi ramzi bu, qani ayting kim topar?

(Gerb)

7. “Koʻkka koʻtarmoq” iborasini sharhlang.

Uyga vazifa. Z. Hasanova hayoti, ijodini oʻrganish, sheʼrni ifodali yod olish.

Baholash. Darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantirilib, baholanadilar.

Darsni yakunlash. Xayirlashish metodi.

Oʻquvchilardan hamma oʻng qoʻlini koʻtarishni soʻraladi va qoʻlini oʻnga, chapga harakatlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.S.Matchonov, H.Bakiyeva, X. G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, G.Xolboyeva. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. – 2021-yil.
2. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. 2-qism (54-bet). U.B. Aydarova . –Toshkent “Novda Edutainment”, 2023-80b.
- 3.Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
- 4.Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>
- 5.Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
- 6.Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>